

MILLIY KURASH USULLARIDA YUQORI MALAKALI KURASHCHILAR SPORT TAYYORGARLIK JARAYONLARI

Jumakulov Zoxidjon Patidinovich

Andijon davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti dekani. dotsent

Annotatsiya: Bizning respublikamiz xududida kurashning ikki turi mavjud bo‘lib bu Buxorochocha va Farg‘ona qoidalari bilan kurashishdir. Milliy sport turlari alohida olganda har bir xalq milliy madaniyatning o‘ziga xos elementlari sifatida emas, balki jismoniy harakatining hozirgi vazifalarini hal qilishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Spartakiadalar paytida polvonlarning kuch sinashganlarini hamma ko‘rgan bo‘lsa kerak. Xalq yuksak jismoniy belgilarga va tehnika mahoratga ega bo‘lgan mashhur kurashchilarni polvon deb ataydilar. Kurash barcha tantanalarning doimiy yo‘ldoshi.

Kalit so‘zlari: klassik, erkin, milliy, jalb, Milliy sport, sharoit, xalq milliy, kuch, jismoniy, ma’naviy, irodaviy, psixologik.

Abstract: There are two types of wrestling on the territory of our republic, wrestling with the rules of Bukhara and Fergana. National sports, in particular, appear not as unique elements of the national culture of each nation, but as an important means of solving the current tasks of physical activity. Everyone must have seen wrestlers trying their best during Spartakiads. Popular wrestlers with high physical characteristics and technical skills are called wrestlers. Wrestling is a constant companion of all celebrations.

Key words: classical, free, national, attraction, National sport, conditions, national people, strength, physical, spiritual, voluntary, psychological.

Аннотация: На территории нашей республики существует два вида борьбы, борьба по правилам Бухары и Ферганы. Национальные виды спорта, в частности, предстают не как уникальные элементы национальной культуры каждого народа, а как важное средство решения актуальных задач физической активности. Наверное, каждый видел, как во время Spartakiady борцы старались изо всех сил. Популярных борцов, обладающих высокими физическими характеристиками и техническими навыками, называют борцами. Борьба – неизменный спутник всех торжеств.

Ключевые слова: классический, свободный, национальный, аттракцион, Национальный спорт, условия, национальный народ, сила, физическая, духовная, волевая, психологическая.

O‘rta Osiyoda keng tarqalgan milliy sport turlaridan bo‘lgan milliy-kurash o‘zining uzoq tarixiga ega. Milliy kurash odamlar qabila-qabila bo‘lib yashagan ibtidoiy jamoa davridayoq rasm bo‘la boshlagan. Buni ko‘pgina arxeologik, etnografik materiallar, yozma manbalar, turli tuman yodgorliklar ham tasdiqlaydi.

O‘zbeklar, tojiklar ularning ko‘p asrlik tarixlari davomida o‘ziga xos jismoniy tarbiyani barpo etdilar. Jumladan kurash, ot sportining xilma-xil turlari va harbiy mashqlar jangchilarni jangovor tayyorgarligini namoyish etish maqsadida qo‘llanilar edi. Bu sport turlari juda antiqa rangbarang va murakkab texnikasi bilan ajralib turadi. Bu texnika hozirgi kungacha o‘zining jozibadorligi bilan barchani rom etib kelmoqda.

Kurash eng qadimiy, hammabop va keng tarqalgan milliy sport turlaridan biridir. Sportcha kurash maktabi klassik va erkin kurash sambo va dzyu-doning muvaffaqiyati barcha

ittifoqdosh respublikalarda milliy kurash turlari, o‘zbekcha kurash, gruzincha chidaoba, qirg‘izcha kures va boshqalarning keng rivojlanganligi bilan belgilanadi. Milliy kurash turlari 40 dan ortiqdir. O‘zbekistonda klassik va erkin kurash, sambo, dzyu-do, karate bilan bir qatorda o‘zbekcha milliy kurash ham rivojlanib bormoqda. Turli oblast rayonlardagi an’anaviy xalq bayramlari va spartakiadalarning programmasiga kurashning kiritilishi uning xalq orasida keng tarqalganligidan dalolat beradi. Mashg‘ulotlarni tashkil etish va uni o‘tkazish joylari jihozlarning soddaligi tufayli o‘zbekcha milliy kurash mamlakatimizda yoshlarni ommaviy jismoniy tarbiya va sport harakatiga jalb qilishiga yordam beradi. Milliy sport turlari keng rivojlantirish uchun sharoit mavjud bo‘lgan qishloq joylarda u ayniqsa murakkab va maftunkor bo‘lishi mumkin. Bizning respublikamiz xududida kurashning ikki turi mavjud bo‘lib bu Buxoro va Farg‘ona qoidalari bilan kurashishdir. Milliy sport turlari alohida olganda har bir xalq milliy madaniyatning o‘ziga xos elementlari sifatida emas, balki jismoniy harakatining xozirgi vazifalarini hal qilishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Spartakiadalar paytida polvonlarning kuch sinashganlarini hamma ko‘rgan bo‘lsa kerak. Xalq yuksak jismoniy belgilarga va texnik mahoratga ega bo‘lgan mashhur kurashchilarni polvon deb ataydilar. Kurash barcha tantanalarning doimiy yo‘ldoshi. O‘zbek xalqining bu an’anasi o‘tmishdan qolgan meros. Uzoq vaqtlardan beri kurash tushuvchilar yakkama-yakka bellashuv natijasida kuchlilik, tezlik, chidamlilik epcillikni, ya’ni insonning kundalik faoliyati, Vatan himoyasi shuningdek yuqori sport natijalariga erishish uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirar edilar. Unda o‘smir va yoshlarni jismoniy tarbiyalash sistemasida kurashning vazifalari, mazmuni, tutgan o‘rni va ahamiyati yoritiladi, ko‘ngilli sport jamiyati, bolalar va o‘smirlar sport maktablari seksiyalarida hamda oliy o‘quv yurtlarida kurashchilarga ta’lim tarbiya berish vositalari, forma va uslublari bayon qilinadi.

Kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorlash formalari, harakatlar texnikasi va taktikasi asoslari-nazariy ma’naviy, irodaviy va psixologik tayyorgarlik masalalari, shuningdek kurash mashg‘ulotlarini rejalashtirish va asosiy o‘quv xujjatlari tushunarli formalarida tavsiflanadi. Unda o‘zbekcha milliy kurashning vazifasi ahamiyati tutgan o‘rni va rivojlanish tarixini ochib berilgan.

O‘smir va yoshlarni oilada kurash tushishga muvaffaqiyatli o‘rgatishning hal qiluvchi shartlaridan yana biri, bu kurashga ta’luqli trenirovka mashg‘ulotlarini har tomonlama jismoniy tayyorgarlik bilan oqilona qo‘shib olib borish yo‘li bilangina oilada chinakam kurashchi etishtirish mumkin deb xisoblaydilar, bu xato fikrdir. Chunki kurash tushuvchi jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlangan, chidamli, chaqqon, kuchli bo‘lgandagina uni chinakam polvon deb hisoblash mumkin. Bu sifatlar esa har xil mashqlar va trenirovkalar yo‘li bilan hosil qilinadi. Maxsus kurash va mashg‘ulotlardan tashqari, yosh kurashchi har kuni mashg‘ulotlar va mashg‘ulotlardan tashqari, yosh kurashchi har kuni ertalabki gimnastika mashqlar kompleksini, shuningdek, kuchlilikni, tezkorlikni, chaqqonlikni rivojlantiruvchi mashqlarni ham bajarish kerak. Ota-onalar oilada bolalarini kurashga o‘rgatar ekanlar, ularning biron-bir boshqa sport turiga jismoniy kuch talab etmasligi zarur. Masalan, oilada kurash bilan shug‘ullanuvchi o‘smir engil atletika, suzish, gimnastika, sport o‘yinlari va hokazolar bilan shug‘ullanishi mumkin. Kurash va katta jismoniy yuklamalarni talab etuvchi yana qandaydir sport turi bilan shug‘ullanish o‘smir organizmiga zarar keltirishi mumkin. Axir kurash bilan shug‘ullanish juda katta jismoniy va ma’naviy kuch sarflanishi talab etadi. Shuning uchun mashg‘ulotlarni, masalan, og‘ir atletika, yugurish bilan qo‘shib olib borish maqsadga muvofiq emas. Biroq, individual trenirovkalarda kurashchi gantellar, shtanga bilan

mashq qilish tufayli kuchlilikni, chidamlilikni rivojlantiradi. Oilada polvonlar etishtirish uchun biz maxsus trenirovka mashqlarini ishlab chiqamiz.

Yakka kurash turlari bilan shug‘ullanuvchilarni sport trenirovkasi tayyorgarlikni besh turi bilan mustahkam bog‘langan. Nazariyada ularni ba’zan sport trenirovkasi tomonlari deb ataydilar. Ularga quyidagi tayyorgarlik turlari kiradi: nazariy, jismoniy, texnik va taktik, ruhiy, hakamlilik va uslubiy tayyorgarliklar.

Sport tayyorgarligi sport turi bo‘yicha harakatlar texnikasi va taktikasini mukammal egallash xamda jismoniy fazilatlarni barkamol bo‘lishidir. Kurashchilarni tayyorlashning dastlabki bosqichlarida texnik va jismoniy tayyorgarlikni amalga oshirish bo‘ladi. Kurashchilarning jismoniy fazilatlarni rivojlantirish ularni kurash xarakatlar texnikasini mukammal o‘rganishga yordam beradi. Shunday ekan Kurash bilan shug‘ullanuvchilarning turmush tarzi, kun tartibiga rioya qilish talablari, ularning shaxs xususiyatlari, dunyoqarashlari, sport mashg‘ulotlariga bo‘lgan e’tibori, axloqiy fazilatlari, ma’naviy va ma’rifiy tarbiya jarayonlari yanada mustaxkamlanib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. Дарслик. Тошкент. 2001.
2. Юсупов К.Т. Кураш мусобақаларининг умумий қоидалари. Т. 1998.
3. Сахабутдинов М.М., Шайхутдинов А.Ш., Бозин.А.А., Ахметханов Р.Р., Спортивная борьба на поясах. Правила соревнований. Москва 2005.
4. Гончарова. О.В. Ёш спортчиларнинг жисмоний қобилиятларини ривожлантириш. Тошкент 2005.